

OILADA DESTRUKTIV NIZOLAR NAMOYON BO'LISHINING IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

*Ishonkulova Norbiye Islamovna, Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti o'qituvchisi*

SOCIO-PSYCHOLOGICAL FEATURES OF THE MANIFESTATION OF DESTRUCTIVE CONFLICTS IN THE FAMILY

*Ishonkulova Norbiye Islamovna, Teacher of Samarkand State
University named after Sharof Rashidov*

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПРОЯВЛЕНИЯ ДЕСТРУКТИВНЫХ КОНФЛИКТОВ В СЕМЬЕ

*Ишонкулова Норбие Исламовна, преподаватель
Самаркандского государственного университета имени
Шарофа Рашидова*



[https://orcid.org/
020g-0220-0342-0440](https://orcid.org/020g-0220-0342-0440)

e-mail:

norbiyiishonkulova@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada oilada destruktiv nizolar namoyon bo'lishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, destruktiv xatti-harakatlar, destruktiv xulq, oilada nizoli vaziyatlarning kelib chiqish sabablari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: oilaviy munosabatlar, muammoli vaziyatlar, destruktiv, nizo, mojaro, nikohdagi nizolar sabablari.

Abstract: This article covers the socio-psychological features of the existence of destructive conflicts in the family. Also, destructive behavior, destructive behavior, reasons for the origin of conflict situations in the family stated.

Keywords: causes of family relationships, problem situations, destructive, conflict, conflict, marital conflicts.

Аннотация: В данной статье о свещены социально-психологические особенности проявления деструктивных конфликтов в семье. А также описано деструктивное поведение, причины возникновения конфликтных ситуаций в семье.

Ключевые слова: причины семейных отношений, проблемных ситуаций, деструктивных, конфликтных, конфликтных, супружеских конфликтов.

Abstract: This article covers the socio-psychological features of the existence of destructive conflicts in the family. Also, destructive behavior, destructive behavior, reasons for the origin of conflict situations in the family stated.

Keywords: causes of family relationships, problem situations, destructive, conflict, marital conflicts.

KIRISH. Jahonda amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarda oilaviy munosabatlarda yuzaga keladigan destruktiv nizolar va uning oldini olishda ijtimoiy-psixologik xususiyatlariga qaratilgan ilmiy izlanishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mazkur vazifalarni bajarishga yordam berishga

yo'naltirilgan zamonaviy tadqiqotlarda oilaviy munosabatlarda konstruktiv shaxslararo munosabatlarni saqlash va qadrlash, ularni oilani mustahkamlovchi omil sifatida qo'llash bilan bog'liq muammolar tadqiq etilmoqda. Ushbu tadqiqotlarga mos ravishda er-xotinlar o'rtasida yuzaga keladigan

turli xil nizolar va bu nizolar ko‘rinishlari destruktiv shaklga o‘tishining oldini olish, oila-nikoh munosabatlari to‘g‘risidagi tasavvurlarni boyitish hamda destruktiv nizolarni hal qilishning optimal yechimlarini ijtimoiy-psixologik jihatdan tadqiq etish dolzarb masalalardan biridir.

Zamonaviy jamiyat insoniyat uchun ko‘plab imkoniyatlar eshigini ochgan bo‘lsa-da, biroq u insoniy munosabatlar tizimida o‘ziga xos o‘zgarishlarga ham sabab bo‘lmoqda. Yangi muhit, yangi munosabatlar, hamkorlikda ishlash imkoniyatlari, insonlarning aqliy imkoniyatlari, atrof-muhit ta’sirlari, organizmning tabiiy imkoniyatlari kabilar kishilar o‘rtasida o‘ziga xos xulq-atvor shaklini yuzaga keltirmoqda. Garchi, tajovuzkor xulq hayvonot olamiga xos xulq-atvor shakli bo‘lsada, biroq insoniyat ham bu xatti-harakatlardan xoli emasdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD.

V.M.Alfimovanning yozishicha, destruktiv nizolar hissi - boshqalarga qaratilgan isyonkor mazmundagi xulq-atvor shakli sanalib, u qator salbiy hissiy kechinmalar g‘azab hissi, nafrat hissi, beqaror kayfiyat, noadekvat g‘oyalar, ma’naviy va jismoniy zarar yetkazish kabi jihatlar bilan xarakterlanadi[2]. Shu bois, “destruktiv nizolar” va “agressiya” tushunchalarining ma’nolarini aniqlab olish o‘ta muhim hisoblanadi.

Tadqiqotchi A.V.Goncharovning aniqlashicha, destruktiv nizo shaxslararo, davlatlararo xarakterga ega bo‘lib, unda jismoniy va yuridik shaxslarning xatti-harakatlari aks etadi. Ya’ni u hujumkor va mudofaaviy xarakterga ega bo‘ladi[2]. Shu bilan birga destruktiv nizoda kimdir tashabbuskor bo‘lib, bunday insonlarda maqsadlarni amalga oshirish qobiliyati yuqori darajada shakllangan bo‘ladi.

Mazkur yondashuvlardan farqli ravishda, zamonaviy pedagogik-psixologik mazmundagi, ayrim ilmiy tadqiqotlarda “destruktiv nizo” ni ta’riflashning ikki muhim katta guruhi ajratiladi. Misol uchun, bunday qarashlarni tadqiqotchi Y.M.Antonyanning izlanishlarida yaqqol uchratish mumkin. Muallifning aytishicha, destruktiv nizoni tavsiflovchi ikkita katta ta’rif ajratiladi[3].

1. Destruktiv xatti-harakatlar – bu odatiy me’yor va qoidalarni buzadigan, boshqalarga qo‘rquv va azob-uqubatlar olib keladigan intrumental harakatlardir. Intrumental xarakaterdagi destruktiv nizolar o‘z-o‘zidan kechadigan jarayon emas, balki

biror narsaga erishishga qaratilgan harakat va g‘oyalardan iboratdir[4].

2. Destruktiv xulq – dushmanlik kayfiyatida kechadigan yoki boshqalarni haqorat qilishga qaratilgan salbiy motivlashgan harakatlardir. Shuningdek, mazkur ta’rifga muvofiq, tajovuzkor xulqqa sabab bo‘luvchi omil sifatida, frustratsiya va umidsizlik hissi kabilar tan olinadi. Bundan tashqari, psixolog olimlardan A.Bas, L.Berkovich, G. Feshbaxlarning qarashlarida ham tajovuzkor xulqni ta’riflashga doir ayrim fikr-mulohazalarini uchratish mumkin. Jumladan, A.Basning so‘zlariga ko‘ra, tajovuzkor xulq qachonki, boshqa shaxslarga tahdid paydo etadigan, unga ma’naviy zarar keltiradigan kuchga ega bo‘lsagina, u salbiy xatti-harakatlar majmui sifatida tavsiflanishi lozim[5].

MUHOKAMA. Destruktiv nizolar hissi yoki tajovuzkor xulq muammosini o‘rganishda uch asosiy nazariya mavjud, ya’ni:

1. Harakat nazariyasiga psixoanalitik va evolyusion yondashuvlar kiritiladi. Ushbu nazariyaga muvofiq, destruktiv nizolarga olib keluvchi psixologik omillar sifatida tabiiy xususiyatlar, instinktlar, mayl va xohishlar, libido va ayrim salbiy ichki kechinmalar va hokazo;

2. Destruktiv nizolarni tadqiq etishning etiologik nazariyasi – destruktiv nizolar yashash uchun kurashga qaratilgan tug‘ma reaksiyalar sifatida tavsiflanib, unga ko‘ra, har qanday tirik organizm boshqalarga qarshilik ko‘rsatish, o‘zini himoya qilish, o‘z ehtiyojlarini qondirish, o‘z naslini asrab qolish, ko‘payish va hududni himoya qilish kabi holatlarda destruktiv nizolarni namoyon etadi. Faqat insonlarga o‘z harakatlarini kuzatishga, uni tartiblashga va o‘z xatti-harakatlariga mas’ul bo‘la oluvchi mavjudot sanaladi[6].

3. Destruktiv nizolarni tushuntiruvchi frustratsiya nazariyasi (xulq-atvor yondashuvi) ham farqlanib, uning asosiy namoyondalari sifatida A.Bass, L.Berkovis, D.Dollard, N.Miller kabi olimlar e’tirof etiladi. Mazkur nazariyaga muvofiq, har qanday tajovuzkor xatti-harakatlar ichki impulsni to‘sib qo‘yish hamda imkonsizlik, umidsizlik hislarining ortishi bilan yuzaga keladi. Va shu asnodan, doim tajovuzkor ruhda faoliyat yuritadi. Y.B.Mojgenskiyning ta’kidicha, inson tomonidan o‘zlashtirilgan madaniy va submadaniy me’yorlar ham keyinchalik, tajovuzkor xatti-harakatlarini rivojlantirishni osonlashtiradi.

Misol uchun, bolalikdan destruktiv nizolar sahnalari mavjud bo'lgan multfilmlar ko'rish, va filmlarni to'plash bunga yaqqol misoldir.

NATIJALAR. Oilada nizoli vaziyatlarning kelib chiqish sabablari ko'plab omillarga bog'liq bo'lib, asosan, destruktiv nizoga olib keluvchi sabab sifatida, faoliyatda murakkab muhitning mavjudligi, shaxs motivlarining faolligi, kasbiy faoliyat talablari va shaxsning kasbiy imkoniyatlari o'rtasidagi nomuvofiqliklar bilan tavsiflanadi. Ya'ni, destruktiv nizoqa olib keluvchi vaziyatlarning umumiy belgilariga, quyidagilarni kiritish mumkin[7]:

– qiyinchilikning mavjudligi - shaxsning tahdidni anglashiga, uning har qanday maqsadlarini cheklashiga va turli mazmundagi motivlarini amalga oshirishga to'sqinlik qiladi;

– qiyinchiliklarga munosabat - psixik zo'riqish holatiga olib kelib, uni bartaraf etish uchun subyekt hech narsadan qaytmaydi;

– faoliyat, xatti-harakatlar hamda odatiy muloqotning uslubidan voz kechish yoki oddiydan murakkabga o'tish holati;

– qiyin vaziyatlar - bu faoliyat, hayot, ijtimoiy o'zaro ta'sir va shaxsiy rejalarni bajarish holatidagi murakkabliklar;

– qiyin vaziyatning asosiy belgilaridan biri bu to'siqlar bo'lib, ular zarur motiv va maqsadlarni amalga oshirishga keng to'sqinlik qiladi. Mazkur tasnifga muvofiq, destruktiv nizoning sababi sifatida, hayotiy qiyin vaziyatlar tan olinadi. Qiyin vaziyatlarda shaxs va atrof-muhit o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda nomuvofiqliklar yuzaga kelib, u insonni keskin harakat qilishga undaydi[8]. Umuman olganda, destruktiv nizo fenomeni bilan bog'liq psixologik tadqiqotlarga murojaat etar ekanmiz, avvalambor, uni tavsiflashga doir turli qarashlarga duch kelamiz.

XULOSA. Yuqoridagi ma'lumotlar tahlilidan kelib chiqib, quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Oilaviy munosabatlarda destruktiv nizo shakllanishini tekshiruvchi metodikalar boshqa fan tarmoqlarida yetarli darajada ko'p o'rganilgan, lekin ularning aksariyat qismi umumiy xarakterga ega bo'lib, aynan oilaviy munosabatlar jamoasida paydo bo'luvchi destruktiv nizo shakllanish muammosini tadqiq qilishga qaratilgan metodikalar juda kam va mavjudlarini ham mahalliy muhitga moslashtirish muammosi dolzarbligini yo'qotmaydi.

2. Oilaviy munosabatlar jamoasida destruktiv nizo shakllanishini psixodiagnostik tekshirish va tahlil etish masalasi bir tomondan tanlangan metodikaning validligi, ishonchligi va sinaluvchilarga mos ekanligi bilan karakterlansa, ikkinchi tomondan, sinaluvchilarning tadqiqot ishiga munosabati, ularning individual-psixologik va ijtimoiy-psixologik xususiyatlari bilan bevosita bog'liqdir.

3. Oilaviy munosabatlarda destruktiv nizolar shakllanishini psixodiagnostik tekshiruvchi metodikalarning keng qamrovli, kompleks xususiyatlarga ega ekanligi va sinaluvchilar uchun aniq, tushunarli bo'lishi o'rganilayotgan muammoni keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlashga, ularni bartaraf etish yuzasidan tizimli xulosalar va tavsiyalar ishlab chiqishga, shuningdek, tadqiqot ishining ilmiy farazlarini isbotlashga imkoniyat yaratadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Алфимова М.В. Психогенетика агрессивности / М.В. Алфимова, В.И. Трубников // Вопросы психологии. - 2000. - №6. - С.112 – 121.
2. Гончаров А.В. Изучение влияния самоотношения на конфликтность поведения студентов / А.В. Гончаров // Вестник КГУ им. Н.А. Некрасова. - 2010. - №1. - С.234.
3. Антонян Ю.М. Теория человеческой агрессии. Почему жестоки люди. Монография. – М.: Юнити-Дана : Закон и право, 2015. – С.104.
4. Трифонов А.Л. Психология агрессивности / А.Л. Трифонов. – Москва : Лаборатория книги, 2012. – С.56.
5. Басс А. Концепция агрессии / враждебности: учебник / А. Басс, А. Дарки. – Екатеринбург, 2013. – С.86.¹
6. Можгинский Ю.Б. Агрессия подростков: учебное пособие / Ю.Б. Можгинский; М.: МЕДпресс, 2006. – С.34.
7. Уткин Э.А. Конфликтология: теория и практика. - М.: Асс. авторов и изд. «Тандем», 2005. – С.222.
8. Кашапов М.М. Психология конфликтной компетентности. Учебное пособие/М.М.Кашапов М.В. Башкин. - Ярославль, 2019. – С.89.